

343
1-82

O.S. Ishmatova

**OG'ZAKI NUTQNI SHAKLANTIRISH
VA TALAFFUZGA O'RGATISHDA
FONETIK RITMIKA**



UO'K 373;376
KBK 74.202;74.3
L-82

O.S.Ishmatova. / Og'zaki nutqni shakllantirish va talaffuzga o'rgatishda fonetik ritmika / Uslubiy qo'llanma – Chirchiq «Zebo Prints», 2023. – 36 bet

Muallif: O.S.Ishmatova

“Og'zaki nutqni shakllantirish va talaffuzga o'rgatishda fonetik ritmika” mashg'ulotlar uchun uslubiy qo'llanma Chirchiq davlat pedagogika universiteti, Pedagogika fakultetining 11.09.2023 sanadagi navbatdan tashqari yig'ilishida nashrga tavsiya etilgan. Chirchiq- 2023. - 36 b.

Ma'sul muharrir:

Himmataliev D.O. - Pedagogika fanlari doktori, professor.

Taqrizchilar:

Qodirova F.U. Chirchiq davlat pedagogika universiteti Pedagogika fakulteti, “Maxsus pedagogika” kafedrası, professori pedagogika fanlari doktori

Teshaboyeva F.R. Qo'qon davlat pedagogika universiteti “Maxsus pedagogika” kafedrası, p.f.f.d. PhD

Qayumova G.M. Farg'ona viloyati Quvasoy shahri 90-ixtisoslashtirilgan maktab-internati Korreksion fani o'qituvchisi (Fahriy idrokini rivojlantirish va talaffuzni shakllantirish) o'qituvchisi

Masharipova M.F. Farg'ona viloyati Quvasoy shahri 90-ixtisoslashtirilgan maktab-internati Musiqiy ritmika fani o'qituvchisi

ISBN 978-9910-9415-4-2

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM,
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI
AXBOROT RESURS MARKAZI

© O.S. Ishmatova, 2023

©«Zebo Prints», 2023

“Og'zaki nutqni shakllantirish va talaffuzga o'rgatishda fonetik ritmika” uslubiy qo'llanmasi O'zbekiston respublikasi Oliy ta'lim fan va innovatsiyalar vazirligining 2023 yil 17-martdagi 68-sonli buyrug'iga asosan nashr etilgan G.A.Abdullayeva, O.S. Ishmatovalarning “Fonetik ritmika” o'quv qo'llanmasi asosida tayyorlangan.

Taqdim etilgan uslubiy qo'llanma O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim fan va innovatsiyalar vazirligining 2023 yil 17-martdagi 68-sonli buyrug'iga asosan nashr etilgan “Fonetik ritmika” o'quv qo'llanmasi, F. Qodirovaning Talaffuz darsligi (imkoniyati cheklangan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab-internatlarining 2-sinfi uchun) Toshkent “NISO POLIGRAF” 2021, U. Fayziyevaning Alifbe imkoniyati cheklangan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab-internatlarining 0-sinfi uchun darsligi Toshkent - “ILM-ZIYO” - 2013, V. Qayumova, M.A. Ruzimova, L. I. Knishevalarning Talaffuz darsligi (imkoniyati cheklangan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab-internatlarining 1-sinfi uchun) Toshkent - “ILM-ZIYO” - 2020, Chirchiq davlat pedagogika universiteti ilmiy texnik kengashining 16.09.2022 dagi 2-sonli qarorga asosan nashr etilgan O. S. Ishmatova, va G.S. Abdullayeva “Korreksion mashg'ulotlarda eshitishda nuqsoni bor bolalarning og'zaki nutqini fonetik ritmika orqali rivojlantirish” monografiyasi hamda imkoniyati cheklangan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab-internatlarining 1-sinfi uchun (2022-2023 yil uchun) asosida tayyorlangan.

Uslubiy qo'llanma surdopedagoglar va surdopedagogika yo'nalishida ta'lim olayotgan bakalavr hamda magistr talabalari uchun mo'ljallangan bo'lib kar va zalf eshituvchi bolalarning og'zaki nutqini shakllantirish va rivojlantirishga xizmat qiladi.

Mualliflar tomonidan 2022-yilda taqdim etilgan fonetik ritmika usulidan foydalanishda nuqsoni bor o'quvchilarning og'zaki nutqini rivojlantirishga qaratilgan metodik uslubiy qismi yoritilgan.

1-BO' LIM
UNLI VA UNDOSH TOVUSHLAR

A

Dastlabki holat. Chuqur nafas olish, bir vaqtning o'zida uzoq vaqt davomida a__ ni talaffuz qilish bilan qo'llarni tepaga yon tomonlarga yoyish. Eslatma. Hozirda va bundan keyin ____ (a____) belgisi uning cho'zilgan talaffuziga mosdir. Harakat quyidagilar bilan tavsiflanadi: taranglanish bo'shashgan; intensivligi - kuchsiz; vaqt bo'yicha - uzoq (1-rasm).




1-rasm. A tovushining holati

O

Boshlang'ich pozitsiyani egallaymiz. Nafas olamiz, qo'llarni bosim ostida yon tomonlarga yoyib, o____ deb talaffuz qilamiz.... Harakat biroz tarang, zaif,

P



2-rasm O tovushining holati

Dastlabki holat. bir vaqtning o'zida pa, pa bo'g'imlarini talaffuz qilish bilan mushit bo'lib siqilgan o'ng va chap qo'l bilan yon tomonlarga keskin harakatlar (zarbalar kabi)



3-rasm. P tovushining holati

T

Dastlabki holat. bir vaqtning o'zida ta, ta bo'g'imlarini talaffuz qilish bilan mushit bo'lib siqilgan o'ng va chap qo'l bilan pastga keskin harakatlar (zarbalar kabi) Harakat tarang, kuchli, qisqa (4-rasm).



4-rasm. T tovushining holati

L

Dastlabki holat. La, la, la ... bo'g'inarini talaffuz qilayotganda qo'llaringizni ko'kragingiz oldida aylantiring. Harakat biroz tarang, kuchsiz, qisqa (5-rasm).



5-rasm L tovushining holati.

M

Dastlabki holat. Barmoqlaringizni buruningizga ko'taring, m ___ ni talaffuz paytida qo'llaringizni yumshoq, ohista harakat bilan yon tomonlarga yoying. Harakat biroz tarang, kuchsiz, qisqa, (6-rasm).



6-rasm M tovushining holati

I


Dastlabki holat. Chuqur nafas olib, bir vaqtning o'zida i ___ ni talaffuz qilib qo'llar yuqoriga ko'tariladi. Harakatlar bo'shshagan, kuchsiz, chozilgan (7-rasm).



7-rasm I tovushining holati

O'

Dastlabki holat... Chuqur nafas olish, bir vaqtning o'zida o' ___ ni talaffuz qilish bilan qo'llarni yon tomonlarga bosib yoyish. Harakat biroz tarang, kuchsiz, chozilgan (8-rasm).



8-rasm O' tovushining holati